

ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEMALARNING MILLIY-MADANIY O'ZIGA XOSLIGI

Safarboyeva Yulduzxon Odilboyevna
NDPI 1-kurs doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishimizda, o'rganilayotgan frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy xususiyatlarini aniqlash komponent, tahlilning kontekstologik turlaridan foydalaniladi, tahlil lug'at ta'riflari asosida va zoonim komponentli frazeologik birliklarni badiiy asarlar orqali lingvopetik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: zoonim komponent, frazeologiya, lingvopetik, grammatik, frazeologik birliklar, lingvokulturologiya.

Annotation: in this research work, the identification of linguistic and cultural characteristics of the phraseological units being studied component, contextual types of analysis are used, analysis is based on dictionary definitions and zoonymic component phraseological units are linguopetically analyzed through fiction.

Key words: zoonym component, phraseology, linguopetic, grammatical, phraseological units, linguoculturology.

Frazeologizmlar semantik ma'no jihatdan, grammatik va stilistik qo'llanilish bo'yicha tilning boshqa birliklaridan o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadigan til birliklari hisoblanadi. Ayniqsa, ular o'zining leksik-semantik belgilari bilan bir qatorda tuzilishining murakkabligi bilan ham ajralib turadi.

Ular qanday tuzilishga va ayrim jihatlarga ega bo'lgani bilan tuzilishi bo'yicha semantik tarafdin butun qo'shma so'zga teng bo'lib qolaveradi. Chunki ularning ma'nosi bitta so'zga teng hisoblanadi, ular tahlil qilinmaydi, ma'noviy bo'laklarga bo'linmaydi.

XX asrning 70-yillarning oxiridan boshlab frazeologiya muammolariga tizimli yondashuv an'anasi kuzatilmoqda hamda FBlarning tarkibiy va semantik tarkibini tavsiflash bilan bog'liq masalalar ishlab chiqilmoqda. O'tgan asrning 80-yillari til faktlarini tizim darajasida tahlil qilish g'oyalari asosida frazeologiya obyektini o'rganish usullarining jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot ishimizda, o'zbek tilida zoonim komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilining frazeologiya bo'yicha ilmiy ishlarimizni o'rganib chiqqanimizda ularning har xil tuzilishga {konstruksiya} sifatida ko'zga tashlanadi.

Masalan, tuzilishi tarafdin bir bo'lakdan hosil bo'lgan frazeologizmlar :it o'lgan yer, tepa sochi tikka bo'ldi, ko'zni ochib yumganicha ;

Frazeologizmlarning tarkibida murakkab tuzilishga ega bo‘lgan teng ikki bo‘lakdan tuzilgan bo‘ladi. Masalan: *o‘tirsas o‘poq-tursa so‘poq, birda biya, birda tuyas, bir oyog‘i go‘rda, bir oyog‘i yerda* va hakazolar;

Bunday tuzilmaga ega bo‘lgan frazeologizmlarning har bir bo‘lagi odatda adabiy tilning o‘lchamiga xos pauza orqali ajratilib aytishni taqozo etadi.

O‘zbek tilida frazeologizmlarni struktura tarafdin solishtirganimizda, ularning tarkibi bir xil bo‘lgan ikki komponentdan tashkil topganligiga amin bo‘ldik.

Har bir komponent a‘zolari ham bir xil gramatik formadagi so‘zlardan iborat:

Yov yoqadan, it etakdan (olish)-(yov-it, yoqadan-etakdan)

Ushbu teng ikki komponent frazeologizmlarning asosidir. Har bir komponentni paydo qiluvchi leksemalarni biz **“komponent a‘zolari”** deb atadik.

Frazeologizmlarning ko‘pchiligi tengdosh, epitet, epifora, parallelizm kabi stilistik figuralarga asoslanib yasaladi.

Adabiy tilda frazeologizmlar badiiy asarlarga kuchli ma‘no mazmun, emotsianallik-ekspressevlilik kuch beradi. Va o‘quvchining yuragiga ta‘sirli qilib yetgazib berishda frazeologizmlarning roli juda muhimdir.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlar oddiy til birliklari emas, ular ixcham etib, chevarlik bilan tashkil etilgan so‘zlardir. Ularni o‘rinli qo‘llanish, ularning semantik jihatdan to‘g‘ri foydalanish orqali yozuvchilar ko‘pchilik shoirlarning tilimizning rivojlanishiga ham boyishiga ulkan hissa qo‘shmoqdalar.

Inson, tabiat ham boshqa narsalarni tasvirlashda frazeologizmlar yozuvchilar uchun ta‘sirli va emotsional yechim ekanligi so‘zsiz.

Frazeologizmlarning maqola va badiiy asarlarda stilistik metodlarda o‘zgartirilib qo‘llanilishi ham turli usullar orqali yuzaga kelgan.

Ligvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganadi va zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi doirasida rivojlanadi hamda insonni til va nutq yaratuvchisi sifatida diqqat markaziga qo‘yadi. «Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning faoliyatidagi o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta‘sirini o‘rganadigan, bu jarayonni til va tildan tashqari (madaniy) tarkib ko‘lamidagi birliklarning ajralmas tuzilishi sifatida aks ettiradigan sintez qiluvchi tipdagi murakkab ilmiy fandır»¹.

O‘zbek lingvomadaniyatshunosligida ham mavjud zoonim komponentli frazemalar ham xalqimizning o‘ziga xos dunyoqarashi, voqealikka milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslashi, qiyoslashi mahsuli sifatida shakllanib, taraqqiy etgan. Xususan, bunday birliklar yozuvchi adiblarimiz asarlarida aynan yoki qayta

¹ Воробьев В.В. Лингвокультурология: монография. – М.: РУДН, 2008. – С.37.

ishlangan holda qo‘llanilib, lingvopetik salmoq kasb etmoqda. Fikrimizning tasdig‘i sifatida Azamat Qorjoboevning “Qil ustidagi taqdir – 5 kitob” deb nomlangan asaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklarni aniqladik.

Madina shu joyda Shomilga sinovchan boqdi. Chechen “Qaysi kazino?” deb so‘rsa qarmoqdagi xo‘rak bilan o‘ynashgan baliq holiga tushadigandek sezdi o‘zini. (44 -b)

Bu misolimizda albatta, salbiy holat kuzatilgan. Chunki, ajal bilan o‘ynashgan odamga qiyos qilayabdi. Bu esa asarda kuchli emotsianallikni bildirayabdi;

Gena hammadan yaxshi bilardi. Axir eng yaqin maslakdoshlar, xamtovoqlar bir qo‘yning bo‘g‘zidan qon ichgan tumshuqdoshlarning ajralib ketishi qanchalar majburiyat yuzasidan sodir bo‘lganini u nafaqat bilardi-bevosita guvohi ham edi.(55-bet) Bu misolimizdagi” bir qo‘yning bo‘g‘zidan qon ichgan tumshuqdoshlarning” deb ishlatilgan frazemamiz bir idishdan ovqat yegan, birga yashashgan degan ma’noda kelayabdi. Buni esa yozuvchi mahorat bilan zoonimlarga o‘zgartirib qo‘llagan.

Grammatik funksiyalari bo‘yicha sifatga teng bo‘lgan frazeologik birliklar adyektiv (yoki sifatlashgan) frazeologizmlar hisoblanadi. Jahon tilshunosligida bunday frazeologik birliklar sinfi tanlab olingan zookomponentli frazeologik birliklar umumiy sonining 19%ini tashkil qiladi. Qiyosiy bo‘lmagan sifatdosh frazeologik birliklar oz foizni tashkil qiladi. Adyektiv qiyosiy frazeologik birliklar qoida tariqasida, ikki komponentli bo‘lib, faqat tobe tuzilmalar bilan ifodalanadi. Birinchi komponent, odatda, o‘zining asosiy to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosida ishlatiladi va ikkinchi komponentning vazifasi doimo kuchaytirish bo‘ladi. Buni – «jasur» (sherdek jasur), – «chaqqon, shiddatli» (yo‘lbarsdek shiddatli) kabi misollardan ham ko‘rish mumkin. Qiyosiy frazeologik birliklar yo ijobiy, yoki salbiy baholovchi xususiyatga ega bo‘ladi. Baholashning tabiati ko‘pincha birinchi komponentning semantikasiga bog‘liq, ammo ba’zi hollarda ikkinchi komponentning semantikasi hal qiluvchi rol o‘ynashi ham mumkin: – «semiz» (cho‘chqa kabi semiz) ²Qiyosiy FBlar adyektiv FBlarning eng katta turkumi bo‘lib, ular asosan quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

1) «sifat + qiyosiy bog‘lovchi + ot»:

– «buzg‘unchi, ayyor, yomon niyatli» (maymundek ayyor);

Misollarda ko‘rib chiqamiz:

Shomil cho‘ntagida qo‘ng‘izdek bezovta bo‘layotgan telefonini qo‘lga olgan edi, Madina ham yuzini to‘sdidi.(37-b.)

² Sagatova Zarima.B Ingliz va qoraqalpoq tillarida Zookomponentli frazeologik birliklar:Antoposentrik nuqtayi nazar-Urganch 2023.69

Yigit yovvoyi *cho* 'chqadek chidamli ekan, hiq etdi-yu og'zidan qoni kelguncha yiqilmadi. (70-b)

— Kartasiz na Madinani na Genani olasan. Ayniqsa, Gena seni katta uyingga undaganda ko 'nishing kerak. U hozirda meni Italiyaning bir kunjagida *kasal itdek* gingshib yotibdi, degan xomxayolda. Londonda seni yolg'iz notavon ko'rgach, oshig'ingga aylanadi-qoladi.(164-b)

— Oilamga *ilon misoli kirib*, ishonchimizni qozonib, endi la'nati yuristlarini ishga solishini ko'rmaybsizmi? U bitta narsaga tushunmaydi: Mendan pulni qonunan undirishga ishonadi.(206-b).

Lobar oxirgi stol sari odimlab borarkan, likobcha singan tomonga burgutlardek viqorla ko'z tashladi. (237-b)

Xudo rahmat qilsin- dedi Gena ofisiantga imlab.- Shomil yaxshi odam edi.

Undaylar yakka bo'ridek izg'iydi.(239-b)

Gajar Yo'lbarsdek chaqqon edi. (275-b)

Keyingi misollarimizda zoonim qatnashgan frazeologizmlarni ko'rib chiqamiz.

Sayrga chiqqanida ablah qizi uning raqamlarini oshpaz kingadir aytayotganida bilib olganini gapirgandayoq *xaltasiga sichqon tushganini sezdi*. Bu sichqon Madinaning o'zi emasdi. Oshpaz xoin bo'lib chiqmasligi ham mumkin edi.(81-B)

Bu misolimizda sichqon deb insonga nisbatan aytilayabdi. Kimdir uning iziga tushganligini ikkinchi ma'nosi esa, kimdir uni tinglab turganlik ma'nolarida ishlatgan.

Evaziga xatto qulayroq ijara uyda ham yashash yo 'q. "It azobida ishlash" deb shuni aytsalar kerak. Men mehnatga chidayman, turmush qiyinchiliklariga ham bardoshliman. (100-B) It azobida ishlash iborasi juda qiyinchiliklar tortish, azoblanish ma'nosida keladi. Sababi mehnatning og'irligini shu darajada bildirish uchun muallif shu kabi frazemalardan unumli foydalangan.

Otasining puliga quturgan ko'ppaklar!

Hollaringga maymunlar yig'laydi, yangi fashistlar!" Zo'ravonlar to'xtadi.

(104- B.) Hologga maymunlar yig'lamoq iborasi ahvolingga achinmoq ma'nolarida keladi.Ko'ppaklar degan zoonim insonlarga nisbatan qo'llanilgan. Itlar ma'nosida salbiy ifoda bilan berilgan.

U bir uyning bekasi bo'lib o'tirish o'rniga jinoyatning asov otini choptirib ketayotganida, kunlarning birida nogohon bo'yniga sirtmoq tushib, ma'naviyat vodiysiga asira bo'ladi.(122-b) Jinoyatning asov oti degan frazeologizmidan foydalanilgan. Asl mohiyatiga qarasak jinoyatning asov oti bo'lmaydi. Yani bu yerda ko'chma ma'noda mazmunni kuchli ifodalshga harakat qilgan.

Sizni esa Rossiyada jinoyat olamini taftish qiluvchilar oting qashqasidek tanishadi, ayniqsa, boshingizdan uka (Moskvada davolanayotgan chog’ingizda. (135 –B) Oting qashqasidek degan iboramizda aniq degan ma’noda keladi.

It yotishni bas qil- dedi kimsa. –Agar dam olging kelayotgan bo’lsa, hali vaqt-soati bor. Ikki quloch oq surpga o’rab, yer ostidan yaxshigina joy qilib berishadi. (60-b) It yotish-bu iboramiz bekordan bekor yotishlik, dangasalik ma’nosida keladi. Va bu asarga dangasa insonlarga nisbatan aytiladi. Salbiy ifodada kelgan. It taniydimi bu kalamushlarni! Qani, aytgan joyiga boraylik-chi, muddoalarni nima ekan elchi yuborganlarning.(143- b); Qonunni buzmasangiz, sizni it indaydimi! Londonda yallo qilib yuribsiz-ku ! (251-b). It taniydimi-deb berilgan ushbu iboramizda hech kim tanimaydi degan ma’noni bildiradi. Kalamushlar deb qo’llanilgan ushbu zoonim ham salbiy ma’noda insonlarga nisbatan aytilgan. Bu Rossiyaning iltimosi emas, bilib qo’y shuni! Bir talamis amaldorning paytavasiga qurt tushgan. Qurtlarni sobiq er-xotinlarga senu menga terdirmoqchi abrax. Chuchvarani xom sanabdi! (157-B) Paytavasiga qurt tushmoq, bezovta bo’lib, tashvishlanib, yelib-yugurdi ma’nosida kelgan. Otdan tushsa ham egardan tushmaydi. (266-b) o’z mavqeyini yo’qotganiga qaramasdan o’zini hali boshliqdek tutishi degan ma’nolarda keladi.

Lingvomadaniy jihatdan insonning tashqi ko’rinishi va yoshi, aql-idrok darajasi, ichki fazilatlarini, o’ylashi, mehnat faoliyati, ijtimoiy mavqeyi, xulq-atvori va turmush tarzini bildiruvchi zookomponentli frazeologik birliklari tasnifiga oid ilmiy-nazariy tavsiyalardan o’rgansak ham hali davom etaveradi. Lingvomadaniy jihatdan madaniyat ijtimoiy mehnat faoliyatimiz xuddi hayvonlarga qiyoslanadi. Bu esa bizni gapirayotgan nutqimizga o’z tasirini bermasdan qo’ymaydi. Ushbu tadqiqot shuni ko’rsatdiki, ushbu ko’pchilik zookomponentli FBlar insonning salbiy fazilatlarini tavsiflaydi. O’zbek lingvomadaniyatida insonning eng ko’p qoralanadigan fazilatlarini dangasalik, sergaplik, ochko’zlik va qo’pollik qo’rqoqlik, takabburlik va ahmoqlikdir.

Insonning ijobiy fazilatlarini tavsiflovchi FBlar salbiy baholangan FBlargalarga nisbatan kam. Mehnatsevarlik, rahm-shafqat, mehribonlik, sabr-toqat kabi fazilatlariga ega bo’lgan odamlarga nisbatan katta ijobiy fikr bildiriladi. Va bu millatimiz orasida eng hurmatga sazovor fazilatlar birdamlik, jasorat, ehtiyotkorlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdusamadov Z. N. (2022). Ingliz va o’zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
2. Ergasheva G. I. (2011). Ingliz va o’zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
3. Nasirov, A. A. (2016). Fransuz, o’zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy- madaniy xususiyatlari. Filol. fan. dok-ri dis. Toshkent.

O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA’LIM MUAMMOLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

4. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O‘razova, I. & Rixsiyeva, K. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
5. Raximova, Sh. P. (2019). Ingliz tili idiomatik iboralarini o‘zbek tiliga o‘g‘irishning lisoniy xususiyatlari. Filol. fan. fal. dok-ri dis. Toshkent.
6. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
7. Suvonova, N. N. (2002). Frazeologiya interpretatsiyaning sistem-sath obykti sifatida (fransuz tili materiali asosida). Filol. fan. nomzodi dis. Samarqand.